

### **O'ZBEK MILLIY MADANIY MEROSININING YOSHLAR TARBIYASIDAGI METODLARI VA USLUBLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

***G'aniyeva Bibixonim Shoymardonovna***

*O'zDSMI "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"  
ta'lif yo'nalishi 2-kurs magistiri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, O'zbek milliy madaniy merosining yoshlari tarbiyasidagi metodlari va uslublarini takomillashtirish haqida ma'lumotlar va fikrlar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy ma'naviyat va madaniyat, san'at, globallashuv, ilmiy-ma'rifiy tadqiqotlar, davlat va jamiyat, ijodiy muassasalar faoliyati.

**Аннотация:** В данной статье представлены информация и мнения по поводу совершенствования методов и приемов узбекского национального культурного наследия в воспитании молодежи.

**Ключевые слова:** Национальная духовность и культура, искусство, глобализация, научные и образовательные исследования, государство и общество, деятельность творческих институтов.

**Abstract:** In this article, information and opinions about the improvement of the methods and techniques of the Uzbek national cultural heritage in the education of young people have been presented.

**Key words:** National spirituality and culture, art, globalization, scientific and educational research, state and society, activities of creative institutions.

Har bir insonda tafakkur, fikrlash erkin, mustaqil bo'lishi kerak. Ommaviy tarzda bir xil fikrlash halokatl. Bunda ijod ham, rivojlanish ham bo'lmaydi. Ana shu ma'noda o'yamasdan taqlid qilish milliy qiyofani, o'zlikni unutishga olib keladi. Ayni paytda dunyo adabiyoti, madaniyat va san'atidagi ilg'or, umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan g'oyalarni o'rganish, o'zlashtirish talab

etiladi. Har qanday soha boshqalaridan ajralgan holda yakka o‘zi rivojlana olmaydi. Bugun O‘zbekistonda milliy madaniyat va san’atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralyapti. Negaki, madaniyat va san’at millat taraqqiyoti yo‘lidagi nihoyatda ahamiyatli, o‘ta nozik sohadir. Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladigan, tilagiga ko‘chadigan tuyg‘ularni tarbiyalaydi. Sohada tubdan yangilanish uchun imkoniyatlar kengaygani barobarida milliy madaniyatimizni rivojlantirishga to‘sinqinlik qilayotgan kamchiliklar ham talaygina.

Masalan, madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma hamda birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yo‘q. Yoki yosh ijodkorlarga ta’lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida tayinli tizim shakllanmagan. Busiz madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, madaniy xizmatlar sifatini oshirish qiyin vazifa. Bundan tashqari, aksariyat madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablariga mos kelmasligi ularning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi uchun imkon bermaydi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy jarayonlarda foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko‘taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma’naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o‘zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi.

Ma’lumki har bir davlatning va millatning rivojlanish jarayoni, madaniyat va san’at darajasi bilan belgilanadi. Bizning buyuk o‘zbek xalqimizning ham jahon mamlakatlari tan oladigan milliy madaniyatimiz, ilm-fanimiz va san’atimiz bor. Bugungi kunda esa yurtimizda milliy madaniyatimiz va san’atimizni yuksaltirish va rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 4038-sonli qarori qabul qilindi. Konsepsiada madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani yaratish va rivojlantirish, madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, boy va muqaddas tarixiy, madaniy an‘analarni asrab-avaylash va unga asoslangan xalq ijodiyotini qo‘llab-quvvatlash, xalq og‘zaki ijodi namunalariga yuksak e’tibor, baxshichilik, yallachilik an‘analarini yanada boyitish, yoshlar ijod erkinligini ta‘minlashga erishish, milliy madaniyatni yanada keng tadqiq etish va shu borasida yoshlarni innovatsion g‘oyalar va texnologiyalardan keng foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish bo‘yicha vazifalar belgilanib olindi. Ushbu konsepsiadan ko‘rishimiz mumkinki yurtimizda milliy madaniyat va an‘analarga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu o‘tgan 6 yil mobaynida milliy madaniy meros sohasidagi islohotlar bir necha o‘n yillarga tatigulik darajada beqiyos bo‘ldi. Inson qalbi bilan ishlaydigan, insonga ruhiy quvvat ato etadigan, nafaqat hayrat ulashadigan, balki yorug‘ kelajakka umid va ishonch uyg‘otadigan milliy madaniy meros va san‘at asarlari yaratayotgan ziyolilar uchun juda katta dasturulamal bo‘ldi.

Xususan, yoshlarda ijtimoiy faollik elementlarini qadriyatlarimiz orqali rivojlantirishda xalqimizning ko‘p yillik an‘analari, madaniyati, urf-odatlari, milliy bayramlari, boy madaniy va qadimiy merosi o‘zining alohida o‘rni, ahamiyatiga ega. Yoshlarda milliy iftixon, milliy g‘ururni shakllantirish va mustahkamlash asosida ularning ijtimoiy faolliklarini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Aqliy zakovat, ruhiy, manaviy kamolot, insofu diyonat, muruvvat, mehr-oqibat bular barchasi ma’rifatli, madaniyatli va ma’naviyatli insonlarning asosiy fazilatlari sanaladi. Biz ana shu fazilatlar orqali yoshlarimiz ongida milliy madaniyatimizni va qadriyatlarimizni singdirishimiz lozim. Yoshlarni birinchi navbatda shaxs qilib tarbiyalash, dunyoqarashi keng, ilg‘or tafakkurli, dunyo standartlari asosida ta’lim oladigan, ongli yashaydigan barkamol insonlar qilib tarbiyalash ana shu siyosatning bosh maqsadidir. Ta’lim-tarbiyaning mushtarak olib borilishi, o‘zbekona milliy qadriyatlar, an‘analar,

marosimlar, urf-odatlar bilan chambarchas holda ular ongiga singdirilishi haqiqiy vatanparvar, millatparvar farzandlarni voyaga yetkazadi.

Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Ta’limni-tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”, – degan chuqur ma’noli so‘zlarini eslayman. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtida ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi, albatta.

Yoshlar – har qanday mamlakatning ertasi, kuch-qudrati, suyangan tog‘i. Ular har tomonlama barkamol, jismonan baquvvat, ruhan va ma’nan sog‘lom, bilimli, yuksak tafakkurli bo‘lib ulg‘aysa, el-yurtning ham kelajagi yorug‘, barqaror va farovon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan hujjatda yoshlar ta’limtarbiyasiga alohida urg‘u berilgan. Jumladan, bugungi qaltis davrda mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyilagini ta’minalash ko‘nikmasini shakllantirish aniq maqsad qilib belgilangan.

“Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishi ta’minlanadi. Davlatimiz rahbari faoliyatining dastlabki yillaridanoq ijodkor ziyyolilarga hamda kitobxonlik targ‘ibotiga katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotgani bejiz emas. Zero, kitob aql mash’ali, beqiyos ma’naviy mo‘jiza bo‘lish bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, bilim va dunyoqarashini boyitishda asosiy vositalardan biridir.

Madaniy merosda ko‘proq umumylik ustunlik qilsa, ma’naviy merosda xususiylik ustunlik qildi. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olsa, ma’naviy meros ma’naviy madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi. Ma’naviy boyliklar avloddan avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o‘tadi va jamiyat, uning ma’naviy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy meros deb uzoq va yaqin o‘tmishdagi, hozirgi davrdagi ma’naviy jihatdan g‘oyat qimmatli, o‘chmas iz

qoldirgan mangu yashaydigan, ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma'naviy boyliklarga aytildi. Ma'naviy meros ma'naviy qadriyat sifatida namoyon bo'lib, unga ilm-fan, jumladan, falsafa, adabiyot, san'at, ahloq, dindagi real, dunyoviy ta'limotlar, hurfikrlik va boshqalar kiradi. Ma'naviy meros zamonlar o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotmaydi, balki sifat jihatidan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga ta'sir etib, ular ongini boyitadi, axloq-odobni ezgulik sari yetaklaydi.

Ma'naviy meros biror xalq, millat, uning vakillari tomonidan yaratilib, so'ng umuminsoniyatning ma'naviy boyligiga, merosiga aylanib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining o'tmish avlodlari qoldirgan ma'naviy merosi bunga misol bo'la oladi. Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari ma'naviy merosimiz jihatidan jahondagi oldingi o'rnlardan birini egallaymiz.

Madaniy taraqqiyotga xos bo'lgan umumiylar qonuniyatlardan biri ma'naviyatning to'xtovsiz ravishda yangilanib borishi bilan bog'liq uzlucksiz va takrorlanib turuvchi jarayondan iborat. Ma'naviy hayot jamiyatda amal qiluvchi ijtimoiy me'yirlarga asoslanadi. Lekin bu me'yorlar o'z-o'zidan vujudga kelib, rivojlanmaydi, balki jamiyat fuqarolari, faol shaxslar ishtirokida amalga oshadi. Demak, milliy qadriyatlarning va ma'naviy hayotning yangilanib borishi va yashovchanligi, avvalambor, shu jamiyat fuqarolari zimmasiga yuklatadigan asosiy ma'suliyatdir. Shaxsning ma'naviy yuksalishi va jamiyatning ma'naviy boyligini saqlash muhim holatdir. Inson jamiyat oldidagi burchini to'laqonli ravishda ijro etib borar ekan, uning ijtimoiy me'yirlarga rioya qilishi mavjud an'analarning yashovchanligini ta'minlaydi, o'z faoliyatiga ijodiy yondashuv orqali milliy qadriyatlarning zamon talabiga binoan yanada mukammallahishiga ko'mak beradi. Ma'naviy yuksalish inson hayot mazmunining yanada boyishiga, uning shaxs sifatida komillikka erishishiga asos bo'ladi. Shaxsning ma'naviy dunyosi uning qadriyatlari tizimi, e'tiqodi va dunyoqarashining maskur jamiyatda amal qiluvchi tartib va an'alariga qanchalik mos kelishi bilan belgilanadi. Bunday o'zaro mutanosiblik ma'naviy va milliy hayotimizning yanada

mukammallahib borishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Komillik tuyg‘usi va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi jamiyatda madaniyat va ma’rifatni, il-fan, adabiyot va san’atni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida, fuqarolarning yuksak madaniyat va ma’rifatga ega bo‘lishi mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga ijtimoiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki, madaniyat va san’at sohasida, ma’rifat sohasida yoshlarimizning g‘oyaviy immunitetlarini oshirish ham dolzarb masala sifatida kun tartibida turibdi. Shu o‘rinda hindistonlik davlat arbobi Mahatma Gandining “Men uyimning deraza va eshiklarini mahkam berkitib o‘tiraolmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib, ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”, – degan so‘zlarini nazarga olsak, hozirgi tezkor jarayonlarda yoshlar ko‘rayotgan filmlar, o‘qiyotgan kitoblar qadriyatlarimizga mosligi masalalariga ham alohida e’tibor qaratmoq lozim bo‘ladi.

Faqat o‘z mustaqil fikriga ega, teran fikrlaydigan, millat manfaatini oliv maqsad sifatida qadrlaydigan insongina komil inson sifatida har xil buzg‘unchi, mayda g‘oyalarga qarshi o‘z fikrini ayta oladi. Bunday insonlarning yashashdan maqsadi – oilasida, mahallasida, vatanida jamlangan ezgu qadriyatlarni mayoq qilib, boshqalar ko‘nglini nurga, ezgulikka to‘ldirish bo‘ladi. Insonning ma’naviyati qanchalik yuksak bo‘lsa, irodasi ham shunchalik mustahkam bo‘lishi chin haqiqat. Milliy madaniy merosimiz va san’atimiz sohasidagi yorqin asarlar, kinofilmlar, turli spektakllar, ajoyib adabiyotlar, mumtoz va zamonaviy, klassik ohanglar, mukammal san’at va haykaltaroshlik asarlari faqat insonga ichki va teran asarlarning har birida vatan tinchligi, yurt farovonligi, millat osoyishtaligi, xalqning kuchli irodasi-yu yetuk bilimi aks etib tursa va mana shu asarlardan bahramand bo‘lgan otashqalb yoshlar milliy qadriyatlarning keyingi avlodlarga yetib borishida ham faollik ham ma’suliyat ko‘rsatsalar yurtboshimiz aytgan “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish” – degan ulug‘vor g‘oyaning amaldagi isbotlar ko‘zga tashlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2022. -252-bet.
2. Mirziyoyev Sh. “O‘zbekiston o‘qituvchi va murabiylariga”// gaz. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, “Sharq”. 2021 yil, 1 oktyabr. №40. (4647)
3. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar, 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.
5. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2022. -255-bet.
6. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining joriy arxivi. Ijtimoiy-ma’naviy muhitni baholash texnologiyasi. - 27 bet.
7. Xudojestvennaya kultura razvitiye lichnosti: problemy dolgosrochnogo planirovaniya. – M., 1987. -27-39-betlar.
8. O‘zbekiston yoshlari: holati va istiqbollari. 2018-2022 yillar. Milliy hisobot. –Toshkent, 2023. -60-bet.
9. Qiyom Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2023. – 750 bet